

21 - ke noyga  
gyo

2 ~ 1-52  
2-av 2013

[www.tongyulduzi.uz](http://www.tongyulduzi.uz)

Vatan yagonadir,

Vatan bittadir!

# Tong Yulduzi



2013-yil  
7-yanvar  
N:1  
(66906)



Gazeta 1929-yil 1-avgustdan chiqsa boshlagan

O'zbekiston Respublikasi bolalar va o'smirlar gazetasi

ISSN - 2010-6092

## PORLAR KO'RKAM ARCHAMIZ, ZAVQQA TO'LDOIK BARCHAMIZ!



Kavsar TURDIYEVA,  
bolalar shoirasi

## TURMUSH BO'LSA OBODON...

Qanday ma'no betakror,  
Obodlik so'zida bor?!  
Yuksalish hamda yashnash,  
Go'zallik ichra yashash.

Unda beg'ubor osmon,  
Atrof yorqin, charog'on.  
Qalblarda ezgu niyat,  
Ko'tarinki kayfiyat.

Bunda barcha bunyodkor,  
Intilganga tole yor.  
Insonga berar quvvat,  
Mehr bilan oqibat.

Nur porlaydi dillarda,  
Iqbol esa qo'llarda.  
Hamma sog'lom, yurt omon,  
Turmush bo'lsa obodon.

KO'NGILLARDA  
OBODLIK ZAVQI

YIL  
O'L BO'SHI

VATAN  
ALIFBOSI

2-bet

4-bet

6-bet

# KO'NGILLARDĀ OBODLIK ZAVQI

**Aziz o'quvchilar, bilimdon, zukka, zakiy o'g'il-qizlar!**  
**Oppoq, oydin maqsadlar, sof, samimiyyez tilaklar ila Sizlar  
 bilan yana diydorlashib turganimizdan behad mammunuz.**

Aytishlaricha, Yangi yilni kim qanday qarshi olsa, ana shu kayfiyat yil davomida unga hamroh bo'lar ekan. Biz yangi yilni ajoyib xushxabar bilan, xursandchilikda kutib oldik: gazetamizning qo'lingizdag'i 2013-yilgi ilk soni 85.939 nusxada chop etildi. Demak, mazkur yilimiz ham quvchonch-u shodliklarga to'ladi, ishimizda unum bo'ladi. Bu nima degani? Bu sevimli nashringiz «Tong yuldusi» bu yil yurtimizdag'i to'qson mingga yaqin o'g'il-qizning xonadoniga kirib borib, ularni ma'naviyat, ma'rifat ziyosidan bahramand qiladi, degani. Bu yangi yilda yanada ko'proq tengdoshlarining bilan do'stlashasiz, ular hayotiga oid yangiliklardan, qo'lga kiritayotgan yutuqlaridan voqif bo'lib, ibrat olishga intilasiz, degani. Qolaversa, gazetamizda maqolangiz, suratingiz yoki biror ijod namunangiz chop etilsa, uni shuncha o'quvchi o'qiydi, ko'radi, degani.

Buning uchun Sizdan, fidoyi ustozlaringizdan, ma'naviyatli ota-

onalaringizdan behad minnatdormiz!

Ayniqsa, bu jarayonda bizdan beminnat yordamini ayamagan marg'ilonlik eng faol muxbirimiz, mehnat faxriysi Muhammadjon ota Mahmudovga, shuningdek, Namangan shahridagi 2-maktab-internati, poytaxtimizning Bektemir tumanidagi 289- va Shayxontohur tumanidagi 254-umumta'lim maktablari rahbariyatiga alohida tashakkurimizni bildirmoqchi edik.

O'z navbatida tahririyat xodimlari ham ishonchingizni oqlashga astoydil harakat qiladi. Barcha sahfifalari rangli, mazmunli, mavzusi rang-barang, qiziqarli gazeta o'qishni kim ham xohlama maydi deysiz!?

Shunday ezgu maqsadlarda yangi yangi ruknlar, tanlovlardan tashkillashtirishni rejalashtiriyapmiz. Barchangizni «Obod turmush yili»ga bag'ishlangan «Yurt ozod, turmush obod» nomli insholar, fotosuratlar va rasmlar tanloviga chorlaymiz. Shuningdek, an'anaviy



tarza o'tkazib kelinayotgan «Onajonim tabiat», «Kim ko'p kitob o'qiydi?», «Mustaqillik madhi bolalar ijodida» kabi insholar va rasmlar tanloviga ham taklif etamiz. «Onam mening sirdoshim», «O'g'il bola – mard bola», «Bu kitobni o'qing», «Bizning tarjimon» kabi yangi ruknlarimiz ham sizga muntazir. Sevimli adiblarining «tandirdan yangi u兹ilgan» hikoya va qissalar, she'rlaridan o'qiysiz, jahon bolalar adapiyoti durdonalaridan bahramand bo'lasiz.

Biz «Obod turmush yili»ga shunday rejalar bilan qadam qo'yidik. Xo'sh, Sizning rejalaringiz qanday? Bu yil

qanday cho'qqilarni zabt etmoqchisiz? Turmushimizning yanada farovon bo'lishiga qanday ulush qo'shamoqchisiz? Shular xususida, qolaversa, gazetamiz sahfifalari orqali yana nimalar o'qish istagida ekanligingiz haqida bizga, albatta, yozib yuboring.

Fursatdan foydalananib, barchangizni yana bir bor Yangi yil bilan muborakbo'd etamiz. Ko'ngillardan boshlangan obodlik xonadonlar, mahallalar, shahar u qishloqlarimiz bo'yab yoyilsin.

Yangi yil yurtimizga yanada obodlik olib kelsin!

Feruza JALILOVA

## KITOB SO'RAGAN BOLA

**Qishki ta'til kunlarida pag'a-pag'a qor yog'ishini orzu qilmaydigan o'quvchi bo'lmasa kerak. Bu yil ham bolajonlar orzusini ijobat bo'ldi. Ta'til arafasida yoqqan oppoq qor ular qalbini quvonechga to'ldirdi. Bunday paytlarda chanada miriqib uchish, ya'zemalak otib, qorbo'ron o'yashga nima yetsin?!**

Ta'tilning ilk kunlarida ayvonim derazasidan hovlida Qorbobo yasayotgan, chana sudrayotgan bolajonlarni uzoq tomosha qildim. Bunday paytda kishi beixtiyor bolaligini eslab ketadi. Xayolga berilib, eshil qo'ng'iroq'i ketma-ket chalanganini ham sezmay qolibman. Shoshib borib ochdim. Eshik oldida qo'shnikimizning 7-sinfda o'qiydigan o'g'li Sohibjon turardi. To'ppato'g'ri ko'chadan kelayapti shekilli, ikki yuzi qip-qizil. Salomlashib, uya taklif qildim. Sohibjon avvaliga biroz iyandi, keyin esa asta ichkariga kirdi.

Amaki, bolalarbop kitoblariningizdan uch-to'rtta berib turing. Ta'til kunlarida o'qimoqchi edim.

Uning iltimosidan quvonib ketgan bo'lsam-da, ajablangandek so'radim:

– Ta'tilda mazza qilib dam olmaysanmi?

– Dam olishga ham fursat yetadi. Sinfoshim Yo'dosh bilan



2013-yilda kim ko'p kitob o'qishdan bahs boylaganmiz.

Rost gap. Sohibjonning tashrifidan xursand bo'ldim. Yangi yilni kitob o'qish bilan boshlayotgani qanday yaxshi! Beixtiyor tahririyatga kelgan bir xat yodimga tushdi.

Andijon viloyati, Jalolquduq tumanidagi 21-maktabning 5-sinf o'quvchisi Maftuna Obabakirovning «Kitob – mening do'stimsan» tanloviga yozgan inshosidagi ushbu satrlar diqqatimni tortgandi o'shanda: «Bozorga borsak, birinchi navbatda kiyim-kechak rastasiga emas, kitob do'koniga kirishimiz kerak». Yosh o'quvchi qizning teran fikrlari har qanday kishini to'lganlantririb yuborishi shubhasiz. Mamlakatimizda yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish yo'lida keng qamrovli ishlar olib borilmoqda. Yosh-u qarining qalbida bugungi kundan shukronalik tuyg'usi jo'sh urmoqda.

O'quvchi do'stim! 2013-yilni ham qarshi oldik. Tengdoshlarining Sohibjon va

Maftunalar kabi siz ham Yangi yilni ko'p kitob o'qish, yangi-yangi yutuqlarga intilish kabi ezgu-niyatlar bilan boshlang. «Obod turmush yili»miz muborak bo'lsin!

I. ABDULLAYEV

## DIQQAT, YANGI TANLOV!

3tiqol yillarida Prezidentimiz tashabbusi bilan yurtimizda har bir yilni biron nom bilan atash ibratli an'ana aylandi. 2013-yilning o'tgan yillarimizning mantiqiy davomi siyatida «Obod turmush yili» deya nomlanishini barehamiz mammuniyat bilan qarshi oldik.

Bunday ezgu amallarning mazmun-mohiyatini yoshlarimiz ongiga chucherroq singdirish, jamiyatning poydevori bo'lmish oilalarimizni, demakki, yurtimizni yanada obod qilishde xayrli ishlarga ularni kengroq jalb qilish maqsadida.

## «YURT OZOD, TURMUSH OBOD» INSHOLAR, FOTOSURATLAR VA RASMLAR TANLOVINI E'LON QILAMIZ

Tanlov shartlari quyidagilardan iborat:

1. Tanlova yuborilgan insholar hajmi ikki qog'ozdan oshmasligi shart.

2. Fotosuratlar raqamli fotoapparatda olingen, rasmlar tiniq, yorqin rangli bo'yoqlardan foydalangan holda chizilgan bo'lishi kerak.

3. Ishtirokchining ismi-sharifi, manzili, maktabi, telefon raqami ko'rsatilishi shart. Fotosurati ham ilova qilinsa, maqsadga muvofiq bo'ladi.

Tanlov 2013-yil 8-dekabr – Konstitutsiyamiz bayrami arafasida yakunlanadi.

Ijodiy ishlar quyidagi manzilga yuborilsin: Toshkent shahri, Navoiy ko'chasi, 30-uy.


Indeks: 100129.

Xatjild ustiga «Yurt ozod, turmush obod» tanloviga deb yozib yuborishni unutmang. Shuningdek, ijod namunalarini gazetamizning internetdagi tong1924@bk.ru elektron pochtasi orqali ham qabul qilinadi.


Tanlovgaga marhamat!

# ISTE'DODLAR - YURTIMIZ ERTASI

- Hoy, bolakay! Siz, barmoqlarini o'ynayotgan, nima qilayapsiz?  
 - O'tgan yili erishgan yutuqlarimni sanayapman...  
 - Qani, qanday yutuqlariga erishdingiz, biz ham eshitaylik-chi...  
 - Chorak baholarim besh bo'ldi. Yetita kitob o'qidim. «Bilimlar bellashuvi»ning viloyat bosqichida g'olib bo'ldim...  
 - Barakalla, bir yil vaqtinigiz behuda o'tmabdi. Bilasizmi, siz uchun omadli kelgan 2012-yil farg'onalik tengdoshlaringiz uchun ham juda yutuqlarga boy bo'ldi. Qay biri bilan suhbatalashmay, yutuqlarini sanab, faxrlanishmoqda. Keling, bu omadli bolalarning quvonchlariga biz ham sherik bo'lamiz.



Roziya IBROHIMOVA,  
Marg'ilon shahridagi 25-maktabning 8-sinf o'quvchisi:  
- 2012-yil men uchun unutilmas yil bo'ldi. «Yangi avlod» bolalar ijodiyoti festivalining viloyat bosqichida faxrli natijalarini qo'lg'a kiritdim. She'riy mashqlarim viloyat, respublika nashrlarida chop etildi. Shahrimizdagi «Jahon otin Uvvaysiy» hamda viloyat yozuvchilar uyushmasi qoshidagi «Oltin qalam» adabiy to'garaklari a'zosi bo'ldim. Xullas, nurli kelajagimni bonyod etishimda bu yilning o'rni katta bo'ldi.



Donodil SUBHONIDDINOV,  
Rishton tumanidagi 2-maktabning 8-sinf o'quvchisi:  
- Men rasm chizihsiga qiziqaman. Maktabimizda «Yosh rassomlar» to'garagida ustozim Bahodirjon Hikmatovdan rassomlik sirlarini chuqr o'rgandim. Tumanimizda tashkillashtirilgan ko'rgazmada qatnashdim. O'sha kunlari tumanimizga germaniyalik mehmonlar tashrif buyurishgan ekan. Ular ijod namunalarnidan birini yoqtirib qolib, dastxat qo'yib, sovg'a qilishimni so'rashdi. Mening boshim osmonga yetdi.

Ayubxon NAZAROV,  
Qo'qon shahridagi 1-musiga va san'at maktabi o'quvchisi:  
- Bu yilgi «Yangi avlod» bolalar ijodiyoti festivalida «Qorako'zim» deb nomlangan guruhimiz bilan g'olib bo'ldik. Diplomni esa sevimli san'atkorimiz Munojat Yo'ichiyeva qo'llarimni qattiq siqib topshirganlarida, yanada to'lg'inalanib ketdim.  
Yangi yilda ham intilish, o'qib-o'rganishdan to'xtamayman.  
Intilganga hamisha tole yor bo'ladi, deyishadi. Siz-u bizga ko'rsatilayotgan imkoniyat va e'tibor yetarli ekan, yangi zafarlar sari intilaveraylik!

Sohibjon HOTAMOV,  
Farg'oncha shahridagi Yormazor akademik litseyi o'quvchisi

## ENG YAXSHI SOVG'A

Yaqinda sevimli yozuvchimiz Xudoyberdi To'xtaboyevning tavallud ayyomlariga bag'ishlangan kechada ishtirot etish baxti menga ham nasib etgandi. Atoqli adibimiz bizga sovg'a qilgan «Peshonasiga televizor yopishgan banolaning sarguzashtlari» nomli kitobini ta'tilda mazza qilib o'qidim. Kelajakda bobomizdek yozuvchi bo'lishni diliqma turgdim.

Mahbuba QO'LDSHEVA,  
Toshkent shahar, Chilonzor tumanidagi 281-maktabning 9-sinf o'quvchisi



## YANGI TANLOVLAR BO'LSA...

Sevimli gazetamming 2012-yilgini sonlari bir javon bo'ldi. Endilikda gazetaning yangi sonlarini kutar ekanman, uning sahifalaridan yangi tanlovlari o'rinni olishini istayman. Ayniqsa, menga «Pazanda qizga!» sahifasi juda yoqadi.

Bo'sh vaqtimizga mazmun bag'ishlayotgan tahririyat xodimlarini kirib kelgan Yangi yil bilan tabriklayman!



Hilola SAIDOVA,  
Jizzax viloyati, Jizzax tumanidagi 10-maktabning 7-«V» sinf o'quvchisi

## TILAK

Onamga umr ber,  
Chinor umridek.  
Mehriga qonaylik,  
Erka qumridek.

Onamga quvonch ber,  
Shodlanib yursin.  
Farzandlar baxtidan,  
Nigohlari kulsin.

Meni qo'llab yursin,  
Onam duosi.  
Yo'limni yoritsin,  
Mehri ziyozi.

Asrorbek TURDIQULOV,  
Toshkent viloyati,  
Bekobod tumanidagi 8-umumta'lim maktabi o'quvchisi





*Qadeli o'quochilar! Mana, yangi – 2013-yilni ham boshlab qubordik. Umid qilamizki, bu yilni yangi fiklar, yangi rejalari bilan kutib oldingiz. Zero, yil bosida puza tuzilgan rejalari yil danomida yo'lingizni ravon qilib, dilingizni xushnud etishi shubhasiz. Yil boshi – yo'l boshi, deb bejizga aytilmaganda, axir.*

Siz – bugunning yoshlariqa kitob o'qi, dars qil, til o'rgan, deyishning zarurati yo'q, nazarimda. O'zbekiston Qahramoni, O'zbekiston Xalq shoiri Erkin Vohidov aytganidek, «Bugungi yoshlarga til o'rganining desam, xuddi suv iching, nafas olib turing, degandek bo'lamani, chunki til bilish hayotiy sururatiga aylandi».

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012-yil 10-dekabrdagi «Chet tillarni o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qaroriga ko'ra, respublikamizning barcha hududlarida chet tillarni, asosan, ingliz tilini o'rganish umumta'lim maktablarining 1-sinflaridan o'yin tarzida, og'zaki nutq darslari shaklida, 2-sinfdan boshlab esa alifbo, o'qish va grammatikani o'zlashtirishdan bosqichma-bosqich boshanishi belgilangan.

Zotan, til bilgan – el biladi, bir tilni bilgan bir inson, ikki tilni bilgan ikki inson. Shu o'rinda yana Erkin Vohidovning bundan bir necha yil avval xorijiy davlatga ish bilan borganlari, u yerda til bilmaganlardan o'zlarini haykalga o'xshatib yuborganlarini aytish joiz.

## VATAN SUVRATI

*"Yangi avlod" bolalar ijodiyoti festivalining tuman bosqichida vokal yo'nalishi bo'yicha ishtirok etib, faxrlri 1-o'rinni qo'lga kiritdim. Shu yo'nalish bo'yicha viloyat bosqichida sovrindor bo'lib qaytdim. Oila a'zolarim xursandchilagini ko'rib, bir quvonchimga o'n quvonch qo'shildi. Shu kunni kundalik daftaringma «Olamaq quvonch baxsh etgan oydin kunim», deya qayd etib qo'ydim.*

Maktabimizda bo'lib o'tgan Konstitutiyamizning 20 yilligiga bag'ishlangan tanlovdva «Konstitutsiya – baxtimiz poydevori» mavzusidagi inshom 1-o'ringa loyiq topildi. Bu sanani ham kundaligimga belgilab qo'ydim: «Oydin kunlarimning davomi».


O'ylab ko'rsam, aslida o'tayotgan har bir tinch va osuda kunimiz oydin kunimiz ekan. Har kunimiz bayram, har bir daqiqamiz quvonch-u shodliklarga to'la. Tengdoshlarim qatorida shunday ozod va obod yurt farzandi ekanligimdan faxrlanib, ustozlarim, ota-onam, Vatanim ishonchini oqlashga intilib yashamoqdaman. Ushbu nurafshon kunlarda qalbimda jo'sh urayotgan dil izhoralarimni biringina maqolamda bayon etishga ojizman, biroq eng ezgu tilaklarimni orzularim qanotida yo'llamoqchiman:

– Onajonim, yurtim! Sening bag'ringda orzu havasga to'lib, o'tayotgan har bir quvonchli kunimiga shukrona aytaman. Bir Vatan bo'lsa, shunchalik bo'lar: oila va mahallalari tinch, farovon, bozorlari to'kin-sochin, yoshlari bilim va mahoratda dunyo bilan bellashib tillashayotgan, serquyosh, tuprog'i zar, havosi musaffo! Bunday yurt yana qayda bor, aziz tengdoshim?!

Shunday obod Vatan suvratini ko'zimizga surtaylik, qalbimiza muhralaylik. Ko'ngil – obodlik manzili, deydilar. Bu manzillarga hech qachon yomon illatlarning q a d a m i yetmasin.

*Og'abek  
IBODULLAYEV,  
Buxoro viloyati,  
Shofirkon  
tumanidagi  
50-maktabning  
7-sinf o'quvchisi*

# YIL O'EL BOSEH



«Safardan olganim o'sha achchiq saboq bo'ldi. Ingliz tilini o'rganishga qat'iy ah qildim va ahdimmi andakkina bo'lsa-da, bajardim. O'sha «andak» olis yo'llarda kunimga yaradi. Duduq bo'lsam-da, soqov bo'lmadim»,

biz inglz tilini bilmaymiz, degandek yelka qisishgan, shundan so'ng rus tilida murojaat qilgan, yana o'sha holat. Alisher yapon tilini o'rganmaganidan afsuslanib turgan lahzada ulardan biri «Biz o'zbekcha bilamiz», deya vaziyatga oydinlik kiritgan. Buni qarangki, O'zbekistonga kelgan yaponiyaliklar ingliz, rus tilini bilmas, ammo o'zbek tilini o'rganishayotgan yosh olimlar ekan. Shu voqeab sabab, u xorijliklar bilan muloqotni dastlab o'zbek tilida boshlayotganini aytdi.

Bugungi kunda o'g'il-qizlarimiz o'z iqtidorinini butun dunyoga ko'z-ko'z qilishmoqda. Sport sohasida deysizmi, san'atdami, ilmdami, barcha-barcha sohada yuquqlari maqtovga arziguek. Zero, o'z diyorini gullatganning baxti ham gulga burkanadi.

Barcha ezgu orzularingiz, rejalaringiz 2013-yilda ijobat bo'lsin! Yangi yilingiz muborak bo'lsin!

Feruza SOYIBJON qizi

*Tengdoshingiz Shahzodbek Abduqulov Angren shahridagi 26-umumta'lim maktabining 8-«A» sinfida a'lo baholarga o'qish bilan birga 10-Bolalar musiqa va san'at maktabida rubob bo'yicha tahsil olmoqda. San'atga, musiqa qava bosaligidanoq uyg'ongan Shahzodbek maktabga ilk qadam qo'ygan onlaridan boshlab san'at bayramlarida muntazam qatnashib kelmoqda.*

## QO'SHIG'IDA YURT MADHI

Maktabda musiqa  
ustozi Bahoroy  
Davlatovadan olgan  
saboqlari, musiqa

maktabidagi ustozi Abdulla Xoliqulovning o'gitlari uni musiqaning sehrli olamiga yetaklab, sir-u sinoatlaridan boxabar qildi. Shahzodbekdagisi iste'dodni o'z vaqtida payqagan Angren shahar Alisher Navoiy nomli madaniyat markazi badiiy rahbari Rashidxon Qodirxonov uni markaz qoshidagi «Yog'du» bolalar vokal guruhiiga taklif etdi.

– Shahzodbek yosh bo'lishiga qaramay, «Yagonasan, muqaddas Vatan!» Respublika ko'rik-tanloving Toshkent viloyati bosqichida 2-darajali Diplom bilan taqdirlandi. Uning kelgusida o'z sozi, o'z ovoziga ega, el suygan xonanda bo'lib yetishishiga umid qilamiz, – deydi Toshkent viloyati xalq ijodiyoti va madaniyam'rifiy ishlar ilmiy-metodik markazi rahbari o'rnbosari Olim Yahyoyev.

– Vatan, Ona mavzularida kuylashni xush ko'raman. Qo'shiqchilikning an'anaviy ijrochilik yo'nalishini tanlaganman. Keljakda Komiljon Otaniyozov, Ma'murjon Uzoqov singari hofiz bo'lish orzuim, – deydi qahramonimiz.

Biz ham orzulari munavar munavar tonglardek beg'ubor Shahzodbekka katta sahnalar zavqini tilab qolamiz.

*Muhabbat ABDUQODIROVA,  
Toshkent viloyati, Angren shahri*



Shotiro'dliklar ilmli odamni ardoqlab, uylarining to'riga o'tqazishadi.

Bizning bugungi qahramonimiz men bilan birga bir daraning suvini ichib, Xo'ja Pirayx tog' cho'qqisini tavof etib ulg'aygan, shotiro'dlik Abrayqul boboning suyukli o'g'li Abrammat muallimdir. Umrining eng zavqli onlarini kelajak avlod ta'lum-tarbiyasiga bag'ishlagan bu inson o'ttiz olti yillik mehnat faoliyatining qariyb o'ttiz yilini – Surxondayro viloyati, Sarosyo tumanidagi 36-umumti'm lim maktabi jamoaasida rahbarlik qilishga bag'ishladi.

Qarshı davlat pedagogika institutining rus tili va adabiyot fakultetida tahlis olib, ish faoliyatini oddiy muallimlikdan boshlagan Abrammat Rajabovning yuzlab shogirdlari yurtimiz ravnaqni yo'lida xizmat qilayotir.

Iqtidori shogirdlar tarbiyalagani uchun ustozda bildirilayotgan tashakkurnomalar esa samarali mehnat mukofotidir.

So'zimiz boshida tilga oqanımız ilmiga ixlosi baland Abrayqul boba o'g'li

Abramatning ziyyoli bo'lishini orzu qilgandi. Uning orzulari ijobat bo'ldi.

– Mening hayotdagি eng katta ustozim otam bo'lganlar, – deya xotirlaydi Abrammat muallim. – U kishi bizdan

Ustoz ko'zlariga yosh oldi. Elda: «Qari bilganni pari bilmas», degan maqol bor. Balki o'shanda Abrayqul boba, agarida sen menga qo'chqor so'yib bersang ham, men qayta yosharmayman, mendan uzoqlashmay tur, demoqchi bo'lgandir. Yana kim bilsin??

Inson umrini oqar suvgaga qiyoslashlari bejiz emas.

## USTOZ QUVONCHI

farzandlar ta'lum-tarbiyasiga jiddiy qarashimizni talab qildi. Maktab direktoriman. Bir oyga malaka oshirish uchun poytaxtga yo'llanma oldim. So'ng, otamga ilmimni oshirishga borayotganimni atib, duo so'radim. O'shanda otam to'qson yoshni qoralab qolgandi. Menga kulib:

– Bolam, bozordan bir yaxshi qo'chqor sobit olginda, menga so'yib ber. O'shanda o'qishga xotirjam borasan, ilming ham oshadi, – deya hazillashgan edilar. O'shanda negadir otamning so'zlariga tushunmay, duo olib shaharga jo'nadim. Oradan o'n besh kun o'tmay padari buzrukvorimiz olmadan o'tganlari haqida sovuq xabar eshitdim. So'nggi nafaslarida ularning yonlarida bo'Imaganim qattiq alam qildi...



Maktab o'quvchilari Respublika hamda xalqaro musobaqalar g'olib bo'lishgan.

Oldindan oqib ketayotgan suvning ham bir kun qadri bilinarkan. Xuddi kechagidek yodimda, Xizrsifat u nuroni oqsoqolning atrofini o'rabi, biz ham ko'plab pand-u nasihatlar eshitganmiz. Bir kuni Abrayqul

bobo uyimizga kelib, ukam Jabbor ikkimizdan sug'ur ovlab kelishni iltimos qilgandi. Onam boboning so'zlaridan taajjublanib, amaki, hozir avgust oyining oxiri bo'lsa, sug'urlar may, iyun oylarida bo'ladi. Ular allaqachon uyquga ketishgan, desalar ham boba ko'zlariga yosh olib, to'ng'ichimning sog'ligi yomon, unga sug'ur yog'i davo emish, deya uyimizga idish tashlab ketgandi. Oqsoqolning so'zlarini yerda qoldirmaslik ilinjida ovga chiqdik. O'sha kuni ne ko'z bilan ko'raylikki, tog'ning kutilmagan joyida oldimizdan sug'ur chiqdi. Biz uni otib, Abrayqul boboning idishini yog'ga to'ldiranimizni hanuz eslayman...

Biz Abrammat muallim haqida gapirayotgandik, negadir so'zni uning otasiga ko'proq urg'u berishga sarflaganimizni zukku o'quvchi allaqachon ilg'ab olgan bo'lishi aniq. Zero, bizning barcha yaxshi fazilatlarimiz ota-onamizdan o'tgandir. Azaldan ustoz shogirdlik an'analarini davom ettirib kelayotgan xalqimizning bag'ri kengligi ham shundan. Shogirdlari kamolidan mammun holda faoliyat yuritib kelayotgan Abrammat Rajabov

bu yil oltmish yoshni qarshilaydi. Biz ham ko'pming sonli gazetamiz o'quvchilari nomidan tinib-tinchimas ustozning ezgu ishlariiga rivoj tilaymiz.

AXTAMQULI

### Ta'til taassurotlari

*Maktabda o'tayotgan Yangi yil bayramida o'quvchilar Qorbobo va Qorqizni intiqutishyapti. Ammo ulardan hamon darak yo'q. Chunki ularni yovuz Yalmog'iz kampir jodulab, yo'ldan adashtirgan. O'quvchilar sinfdoshlari Shahnoza va Bahodirni Qorbobo, Qorqizni qidirishga yuborishadi. Nega aynan ularni, deysizmi? Chunki Shahnoza sinfda eng a'lochi qiz, bilimdon, matematikadan olimpiadada g'olib bo'lgan, ko'p ertak kitoblar o'qigan. Bahodir esa karate bo'yicha champion bo'lgan. Bolalar Bahodirni Shahnozani himoya qilish uchun birga tushunmay, duo olib shaharga jo'nadim. Oradan o'n besh kun o'tmay padari buzrukvorimiz olmadan o'tganlari haqida sovuq xabar eshitdim. So'nggi nafaslarida ularning yonlarida bo'Imaganim qattiq alam qildi...*

## YANGI YIL SARGUZASHTLARI

O'zbek Milliy akademik drama teatri qoshida tashkil etilgan «Tasanno» bolalar teatr-studiyasi tomonidan shoir, dramaturg Usmon Azim qalamiga mansub «Yangi yil sarguzashtlari» spektakli namoyish etilyapti. Studiya rahbari, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist Shohida Ismoilova hamda O'zbekiston xalq artisti Marat Azimov tomonidan sahnalaştilrilgan bu spektakl bolalar tomonidan yaxshi kutib olindi. Biz Shohida opani bolalar davrasida ko'rganimizda, ularga havasimiz keldi.

– Studiyamiz tashkil etilganiga 3 yil bo'ldi, – deya gap boshladi Shohida opa. – Bolalar bilan bir qancha tomoshalar namoyish etdik. Studiyamizga qatnaydigan bolalarni 3 guruhga bo'lganmiz. Har bir guruhda 20 nafardan bola bor. Iste'dodli bolalarning maktabda fanlarni o'zlashtirishlariga ham e'tibor beramiz. Hozir jazzi aktyorlarimizni teatrga, badiiy filmlar dublyajiga taklif qilishyapti.

– Men Sergeli tumanidagi 7-maktabning 7-sinfida o'qiyaman, – deydi Shahnoza obrazini talqin qilayotgan Nodira Alijonova.

– Studiyaga qatnayotganimga 2 yil bo'ldi. Studiyamiz hamda Milliy akademik drama teatri tomonidan



namoyish etiladigan «O'zbekcha raqs», «Yig'lama qiz» spektakllarida ham turli obrazlarni talqin etishga harakat qilyapman.

– Men bu spektaklda Bahodir obrazini yaratdim, – deydi Sergeli tumanidagi 300-maktabning 5-sinf o'quvchisi Shahzod Hikmatullayev. – Katta sahnada To'ti Yusupova, Nigina Anorboyeva singari tajribali

aktyorlar bilan birga «Yig'lama, qiz» spektaklida Hojimurod rolini o'ynadim.

Spektaklda shaytoncha obrazini ijro etayotgan studiyaning eng yosh a'zosini Mubina Nazirboyevaning mahoratiga qoyil qoldidi.

Shuningdek, spektaklda qatnashgan Odilxon Ahmadxonov, Kamoliddinov Fozilxonov, Hojiakbar To'qjinjonov kabi bolalarga «Bo'sh vaqtlarining yana nimalar bilan shug'ullanasis?» deya murojaat qilganimizda, bir ovozdan: «Kitob o'qiyimiz», degan javobni oldik. Chunki turli obrazlar yaratishlarda kitob ularga yaqin ko'makdosh ekan.

Shahnoza va Bahodirning sarguzashtlari qanday yakun topishini bilishni istasangiz, ta'til kunlaringizda Milliy akademik drama teatriga tashrif buyuring. Siz ham «Tasanno» teatr studiyasi a'zolarining mahoratiga qoyil qolishingiz tayin.

LAYLO.  
Suratlar muallifi: Z.NISHONOV



# VATAN ALIFBOSI

**A**  
 «Avesto»ni o'qib, kuch oldim  
 Ajodlarning qalb sadosidan.  
 Aziz Vatan, men uchun o'zing  
 Abadiyt alifbosidan.

**B**  
 Bag'ringda bog' -bo'ston yaratib,  
 Baxting asrab yashash - shiorim.  
 Bu olamda yashna to abad,  
 Bor bo'l, aziz ona diyorum!

**D**  
 Dilimdagisi sajdagohimsan,  
 Dilbar yurtim, hur o'lkam meni...  
 Dur-gavhardan azizrog'imsan,  
 Dunyolarga alishmam seni!

**E**  
 Erkin diyor, baxt o'lkasian,  
 Ey, sen aziz jannatmakonim.  
 Ezguliklar malikasian -  
 Erek qo'rg'oni - O'zbekistonim.

**F**  
 Fasllarning belanchagida  
 Fayzing bo'lak, chiroying bo'lak.  
 Farog'at ne, orom ne bilmay,  
 Faqat sen deb yongaydir yurak.

**G**  
 Gullarga kon qadim makonim,  
 Gavhari dil, gavhari jonim.  
 Gar timsoling topa olmasam,  
 Gunohimdan o't, onajonim!

**H**  
 Hayron boqib oy jamolingga,  
 Hayratda lol termular dunyo.  
 Husn qo'shib oqar bag'ringda  
 Hayqirgancha ikki sho'x daryo.

**I**  
 Intilganga tole yor, derlar,  
 Intilganim o'zingsan, Vatan.  
 Ishqing bilan yasharman bedor,  
 Ishon, ko'r ko'zimsan, Vatan!

**J**  
 Jilg'alaring oqar jimirlab,  
 Jamalaksoch mavjamlari quchib.  
 Jayhun yurtini kezar shovullab,  
 Jambil, rayhon bo'yalarin sochib.

**K**  
 Kimdir jordan sevib diyorin,  
 Kerak bo'lsa, baxsh etgay jonin.  
 Ko'r ilondek g'aflatda o'tar,  
 Kimki xilvat tutsa makonin.

**L**  
 Lolazorlar ichra kezib shod,  
 Lol boqurun olamga bu on.  
 Loqaql bitta lolang bo'lolsam,  
 Lolazorim - jon O'zbekiston!

**M**  
 Majnuntollar soyasida men,  
 Maftun-u lol boqgum husningga.  
 Mangu porloq quyoshim o'zing  
 Mehrin sochgan aziz umrimga.

**N**  
 Nujiddin Kubrodan o'rgandim,  
 Nomus-u or, mardlik shiddatin.  
 Ne tongki, u etdi naq'chaqin,  
 Nomard yovga bo'lgan nafratin.

**O**  
 Oftob yurti, ko'ksi osmonim,  
 O'g'ushingda baxtliman har choq.  
 Olam aro tengsiz bo'stonim,  
 O, ona yurt, o, aziz tuproq!

**P**  
 Paykalinda marjondir go'yo,  
 Paxta, bug'doy atalmish durlar.  
 Peshonasi yorug', mard xalqim,  
 Porloq erur ertangi kunlar.

**Q**  
 Qaldirg'ochlar charx urgay ko'kda,  
 Qarab, ko'zim quvnaydi takror.  
 Qizg'aldoqlar ochilgan qirdan  
 Qalbim zavq-shavq olur har bahor.

**R**  
 Rayhonlaring, o, xushbo'y biram,  
 Rizvon bog'im, go'zal bo'stonim.  
 Rozidirman, sen deb jon bersam,  
 Rayhon bo'yli O'zbekistonim!

**S**  
 Siyovushdan meros qo'rg'onim,  
 Sarhadlaring tinch, omon bo'lgay.  
 Sohibqiron sha'niday shonim,  
 Salobating dilga o't solgay.

**T**  
 Tog'laringning cho'qqisi har dam,  
 Tutib turar tiniq osmonni.  
 To o'lguncha dunyo kezsam ham,  
 Topolmasman sendek makonni.

**U**  
 Ulikan daryo, tog'laring bisyor,  
 Uzumzor-u bog'laring bordir.  
 Umri senda o'tgan har inson,  
 Umrbod shod va baxtiyordir.

**V**  
 Vodiylar-u vohalar kezdim,  
 Voqif etdi ko'p sirdan sahrong.  
 Va qalbimda mehring his etdim,  
 Vatan, sensan olamda tanhom!

**X**  
 Xushxabarlar olib esdi yel,  
 Xalqim ulkan zafarlar quchimish.  
 Xayr, shahar, salom, dehqon, el,  
 Xayollarim siz tomon uchmish.

**Y**  
 Yulduzlarga termulib har tun,  
 Yurtim, sendan ilhom olurman.  
 Yulduz yanglig' uchsam-da bir kun,  
 Yuraklarda mangu qolurman.

**Z**  
 Zarafshonning bo'yalarin kezib,  
 Zilol suving ko'zlarqa surtdim.  
 Zarafshonning zar kokillari  
 Zar tuprog'ing eslatar yurtim.

**O'**  
 O'zbekiston - ona diyorum,  
 O'rgilayin aziz otingdan.  
 O'rik gulin sochgan bahorim,  
 O'par quyosh guldek totingdan.

**G'**  
 G'afur G'ulom yashagan yurtda,  
 G'ururlanib yashamoq baxtdir.  
 G'ir-g'ir esgan sabolaring ham,  
 G'azalda eng go'zal shohbaytdir.

**Sh**  
 Sho'x shabbodang esganda g'ir-g'ir,  
 Shodon sezgum men-da o'zimmi.  
 Shirir-shitir yoqqanda yomg'ir,  
 Shabnamlarga chaygum yuzimini.

**Ch**  
 Chuchmoma-yu chechaklar sochib,  
 Chor-atrofnı bezatmish ko'klam.  
 Chappar urg'an bog'laring kezib,  
 Chiroyingdan to'ymasman, o'lkam!

## Tutuq belgisi

Agar so'zda men ga duch kelsang,  
 O't shi joyda biroz tutilib.  
 Nomim tutuq belgisi derlar,  
 Ketolmassan mendan qutilib.

S.FARMONOV chizgan rasm



# MARD O'G'LONLAR ORZUSI

Ta'tilda qishlog'iga kelgan Xudoyberdiga mahalla bolalarining juda havasi keldi. Bolakaylardan biri uning harbiy kiyimini ko'zdan kechirsa, ikkinchisi tinmay savolga tutardi. To'g'ri-da, axir Toshkentdag'i nufuzli harbiy ta'lif maskanida o'qishni qaysi o'g'il bola istamaydi, deysiz?!



Hikoyamiz qahramoni teng-doshingiz Xudoyberdi Qodirov asli qashqadaryolik. Hozirda Toshkent harbiy telekommunikatsiya yo'nalişidagi akademik litseyda tahlil olmoqda. Mazkur litsey aniq fanlarga yo'naltirilgan bo'lib, o'quvchilar uchun o'to'rta fan va oltita sport, jumladan, Amir Temur avlodlari, qo'l jangi, nishonga aniq otish, yengil atletika, shaxmat-shashka to'garaklari tashkil etilgan. Qo'l jangi to'garagining eng faol a'zosi bo'lgan Xudoyberdi 1-bosqich o'quvchisi bo'lishiga qaramay, yaqinda o'tkazilgan qo'l jangi bo'yicha xotira turnirida 60 kg. vazn toifasida g'oliblikka erishdi. Va shu

yili Avstraliyada o'tkaziladigan qo'l jangi bo'yicha nufuzli musobaqa qada ishtirok etish uchun yo'llanmani qo'lg'a kiritdi. Faol va a'lochi o'quvchilardan yana biri 3-bosqich o'quvchisi Zafar Qo'ziboyev esa bu yilgi fan olimpiadasida ona tili va adabiyot fani bo'yicha ishtirok etib, shahar bosqichiga yo'llanma oldi. Zafar ancha tirishqoq yigitlardan chog'i, biz bilan suhabatga kirishib, litsey haqida quyidagilarni so'zlab berdi:

— Litseyimizda haftaning bir kuni sport kuni deb belgilangan. Ushbu kun harbiy mashg'ulotlar bilan shug'ullanib, saf qo'shiqlaridan kuylaymiz. Turli musobaqalarda

bellashamiz. Dam olish kunlari muzej va teatrarga sayohat yushtiramiz. Bu yerdagi tartib-qoidalarga roya qilish, uning intizomli o'quvchisiga aylanish anchagini mehnat, matonatni talab qiladi. Buning uchun jismoniy tay-yorgarlikka, shuningdek, matematika, fizika, tarix, ona tili fanlidan chuqur bilim egasi bo'lish lozim. Men bugun orzuimga yetishganimdan baxtiyorman...

Ana shunday havas qilsa arzigulik 450 ga yaqin tengdoshlaringiz ushbu ta'lif maskanida tahsil olayotgan bo'lib, ularning jismonan baqvavat, mard va jasur hamda bilimli, dunyoqarashi keng avlod sifatida kamol topishlari uchun barcha sharoitlar yaratilgan. Ikkita kompyuter, bitta kompyuterlashtirilgan lingafon xona, elektron tir xonasi, 14000 ga yaqin o'quv va badiiy adabiyotlar saqlanayotgan Axborot-resurs markazi o'quvchilar ixtiyorida. Qanchadan qancha bo'lajak yurt posbonlarini tayyorlab berayotgan o'quv dargohida malakali, olyi ma'lumotli ustozlar qo'lida kamol topayotgan o'g'lonlar Vatanga munosib farzand, posbon bo'Imoq niyatida ekanlar, bayram arafasida ularga ana shu orzulari ijobatini tiladik.

Aziz o'g'lon! Siz-chi, Vatan, ona, mahalla, oila kabi muqaddas qo'rgonlarimiz tinchligi haqida o'ylaganingizda, o'z oldingizga qanday maqsadlar qo'yasiz? Axir Vatanni sevmoq, himoya qilmoq har birimizning muqaddas burchimiz, sharaflı vazifamizdir.

Sayyora QODIROVA

## ASKAR BO'LAMAN

Bobomlar polvon o'tgan,  
«Sen mendek bo'l»,  
deb aytgan!  
Men hozircha bolaman...  
Polvon askar bo'laman!

O'qishlarim doim besh,  
Sport, kurash menga esh.  
Men hozircha bolaman...  
Polvon askar bo'laman!

Sog'liq bo'lar mustahkam,  
Belni bog 'ladim mahkam.  
Men hozircha bolaman,  
Polvon askar bo'laman!

Posbon bo'lish orzuim,  
O'sib bormoqda bo'yim.  
Men hozircha bolaman...  
Bir kun askar bo'laman!

Orzu qilsam, aybi yo'q,  
Maqsadlarim mag'zi to'q!.  
Men hozircha bolaman,  
Bir kun askar bo'laman...

...Niyat ezgu bo'lsa gar,  
Aql-idrok tez o'sar.  
Hozircha bo'z bolasan,  
Polvon askar bo'lasan!

Bahrom TOJIYEV



## BUGUNNING BOLASI

Rahmatilla Muhsimov poytaxtimizdagi 111-maktabning 9-sinfida tahlil oladi. Darsdan bo'sh paytlarida Olmazor tumanida joylashgan Bolalar va o'smirlar ijodiyot markazi qoshidagi radio-elektronika to'garagiga qatnaydi. To'garak rahbari Tuyg'un Ashurov 16 yillik ish faoliyat davomida yuzdan ziyyod bolalarga kasb-hunar sirlarini o'rgatib kelmoqda. Ushbu markazda rus, inglez tillari, rassomchilik, liboslar dizaynerligi, to'quvchilik hamda kompyuter savodxonligi yo'nalişlari bo'yicha ham tajribali mutaxassislar yoshlarga hunar o'rgatmoqdalar.

Rahmatilla serg'ayrat, bilmiga intiluvchan bola. Barcha bolalar singari u ham futbolga qiziqadi. Sport sog'liq garovi ekanligini yaxshi bilgani uchun ham sportning futbol turi bilan muntazam



shug'ullanib keladi.

— Men kelajakda harbiy bo'lishni niyat qilganman. O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari safida xizmat qilib, yurtimiz sarhadlari, xalqimiz tinchligini qo'riqlash – eng olyi maqsadim. Bu sohani egallash uchun esa baqvavat bilaklar, shaxdam qadamlargacha ega bo'lishim kerak, – deydi u.

Yurtimiz posbonlarining bilimli, yuksak salohiyatlari bo'lishlari lozimligini ham yaxshi bilgan Rahmatilla ma'naviyatini yanada boyitish maqsadida «Tong yulduzi» gazetasiga 2013-yil uchun ham obuna bo'libdi. Gazetamiz uning kamoloti yo'lida xizmat qiladi, degan umiddamiz.

Zuhra NISHONOVA

## ANTIQA MEVALI SALAT



Sizga bugun mevali salatni tavsiya qilamiz.

Ananas, banan, kivi, apelsin, olma... qanday meva bo'lishining ahamiyati yo'q. Muhimmi, bu salat me'dadagi ovqat qoldiqlarini tozalab, oshqozonni ortiqcha zo'r qishidan xalos etadi.

**Tayyorlanishi:** Mayjud mevalarning barchasini o'ttacha to'rtburchak shaklida to'g'raysiz. Kattaroq idishga solib, ustidan biroz shakar sepi, smetana yoki qaymoq quyib, ehtiyyotkorlik bilan aralashsiz. Likopchalarga solayotganingizda, salatni ta'bingizga ko'ra bezatishingiz mumkin.

Yoqimli ishtaha!

NARGIZA tayyorladi

Bola-jonlar, mevalarning salomatligimizda ahamiyati kattaligini yaxshi bilasiz.

Sizga bugun mevali salatni tavsiya qilamiz.

Ananas, banan, kivi, apelsin, olma... qanday meva bo'lishining ahamiyati yo'q. Muhimmi, bu salat me'dadagi ovqat qoldiqlarini tozalab, oshqozonni ortiqcha zo'r qishidan xalos etadi.

**Tayyorlanishi:** Mayjud mevalarning barchasini o'ttacha to'rtburchak shaklida to'g'raysiz. Kattaroq idishga solib, ustidan biroz shakar sepi, smetana yoki qaymoq quyib, ehtiyyotkorlik bilan aralashsiz. Likopchalarga solayotganingizda, salatni ta'bingizga ko'ra bezatishingiz mumkin.

Yoqimli ishtaha!

NARGIZA tayyorladi

# Ingliz tilini o'rganamiz

Aziz o'quvchilar!


O'tgan darslarimizda olmoshlarni o'rgangan edik.

Bu galgi mashg'ulotimizda esa fe'llar, ularning shaxs va sonlarda tuslanishini o'rganamiz.

The Verb «to have», «to have got» – Ega bo'lmox  
Bu fe'lning tuslanishi

**Singular Form:**

- I p. I have a pen.
- II p. You have a pen.
- III p. He  
She } has a pen.  
It



**Plural Form:**

- We have pens.  
You have pens.  
They have pens.

**Question Form:**

**Singular:**

- I. Have I a pen? Yes, I have. No, I have not
- II. Have you a pen? Yes, you have. No, you haven't
- III. Has he a pen? Yes, he has. No, he hasn't
- Has she a pen? Yes, she has. No, she hasn't
- Has it a tail? Yes, it has. No, it hasn't

**Plural:**

- I. Have we pens? Yes, we have. No, we haven't
- II. Have you pens? Yes, you have. No, you haven't
- III. Have they pens? Yes, they have. No, they haven't

**Exercise one.**

«Have», «Has» fe'llarini nuqtalar o'rniga qo'yib, mashqni bajaring:

I ..... a telephone.



He..... a balloon.



We ..... friends.



Merry ..... an umbrella.



She ..... a radio.



They ..... a sister.



Nargiza ..... a brother.



Olim ..... a horse.

**Exercise two.**

Quyidagi gaplarni so'roq formada bering va javobini yozing:

- Ann has a pencil.  
They have bicycles.  
She has a cat.  
He has a car.  
John has a balloon.  
You have an umbrella.  
I have a friend.  
Bob has a rabbit.

Risolat ISMOILOVA

Chaynkrossvord so'zlari anogrammalardan tuzilgan. Anogramma biror

so'zning harflar o'rnini almashtirib (begona harf qo'shmasdan), yangi mustaqil

so'z hosil qilish demakdir. Masalan, ilm - mil - lim va hokazo.

## CHAYN KROSSVORD



8

- Terimchi.
- Shoira.
- Roman.
- Qulun.
- Nomli.
- Andisha.
- Arosat.
- Qator.
- Raqam.
- Kalima.
- Nahor.
- Hunar.
- Nozim.
- Kumush.
- Kurak.
- Nima.
- Tanho.

Anvar  
MIRZA ZODA tuzdi

## KROSSVORD – AQL CHIROG'I

Topishmoqlar tarixiga bir nazar solsak, boshqotirmalar podshosi – Krossvord bo'lib qolmoqda. KROSS+WORD – kesilgan so'zlar 1913-yilda ingliz Viktor Orvell tomonidan kashf etilgan.

Bu yil – krossvord 100 yillik to'yini nishonlamoqda. Bu so'z topish o'yini diyorimizga 60-yillarda kirib kelgan. Bu orada krossvord zamirida skanvord, chaynvordning yaponcha, estoncha, inglizcha, italyancha, ruscha, o'zbekchalar paydo bo'ldi. Hatto ko'plab krossvord gazeta-jurnallari ham o'z muxlislarini quvontirmoqda.

Krossvordchilarni qo'shaloq bayramlari bilan tabriklaymiz, ijodlariga baraka tilaymiz!

Gazetaning o'tgan 52-sonida berilgan «ARCHA» DIAGONAL KROSSVORDIning javoblari:

Diagonal bo'yicha:

- |              |             |                |               |              |              |
|--------------|-------------|----------------|---------------|--------------|--------------|
| 1. Mushak.   | 6. Soat.    | 11. Sobirov.   | 16. Saylqor.  | 21. May.     | 26. Cho'pon. |
| 2. Muchal.   | 7. Qorqiz.  | 12. «Tanovar». | 17. Dorboz.   | 22. Tun.     | 27. Cho'pon. |
| 3. Taymazov. | 8. Turmush. | 13. Qish.      | 18. Hordiq.   | 23. Rasulov. | 28. Shanba.  |
| 4. Marmelad. | 9. Niqob.   | 14. Qor.       | 19. Qaraq'ay. | 24. Kolumbo. | 29. Parvoo.  |
| 5. Sharq.    | 10. Kurash. | 15. Bolalik.   | 20. Armuq'on. | 25. Kuz.     | 30. Non.     |

7 yanvar 2013

Bosh muharrir:  
Feruza JALILOVA

Gazeta O'zbekiston Matbuot va axborot agentligi,  
O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi,  
«KAMOLOT» yoshlar ijtimoiy harakati Markaziy  
Kengashi.  
«SOG'LOM AVLOD UCHUN» hukumatiga  
qarashli bo'limagan Xalqaro xayriya jam'armasi.

TAHIRIR HAY'ATI:  
Bahodir G'ANIYEV,  
Svetlana INOMOVA,  
Jahongir MUSAYEV,  
Murtazov SULTONOV,  
Zoir TURSUNBOYEV,  
Sa'dullo TURSINOV  
(Bosh muharrir o'rinsobasi),  
Feruza ADILOVA  
(mas ul kotib),  
Zikrilla TESHABOYEV,  
Quroqboy ERGASHEV,  
Sobitxon TURG'UNOV

Navbatchi:  
Yusuf ABDULLAYEV  
Rassom:  
Feruz MATYOQUBOV  
Dizayner:  
Shaxobiddin MAXMADIYEV  
Musahih:  
Nargiza ABDULLAYEVA

Manzilimiz:  
Toshkent shahri,  
Navo'i ko'chasi, 30-ty.  
Indeks: 100129.  
Obuna indeksi: 198.  
e-mail:  
tong1924@bk.ru  
www.tongyulduzi.uz

Tel: 244-63-08  
Tel./Faks:  
(99871) 244-38-10

«O'zbekiston»  
NMU'da chop etildi.  
Tahririyatga kelgan baraka  
qo'lyozmalar tahrir qilinadi,  
mualliflarga qaytarilmaydi.  
Haftaning dushbanha kuni  
chiqadi. Shakli A-3,  
2 bosma taboq.  
ISSN 2010-6092  
Adadi - 85939  
Buyurtma N: J 6126

Muassislar:



O'zbekiston Matbuot va axborot agentligi,  
O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi,  
«KAMOLOT» yoshlar ijtimoiy harakati Markaziy  
Kengashi.  
«SOG'LOM AVLOD UCHUN» hukumatiga  
qarashli bo'limagan Xalqaro xayriya jam'armasi.